

TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIM KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Mamadaliyeva Nargiza Abdurasulovna

Namang davlat chet tillari instituti doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22138881>

Annotatsiya. Ushbu tezida ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining (BIO') mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish muammosi nazariy-metodologik jihatdan yoritilgan. Mustaqil ta'limning pedagogik hodisa sifatidagi mohiyati, uning BIO' kasbiy shakllanishidagi ikki tomonlama xarakteri (tilni mustaqil egallash va uni o'qitish metodikasini mustaqil o'zlashtirish) hamda motivatsion, kognitiv, texnologik-amaliy va reflektiv komponentlardan iborat tuzilishi asoslangan. Raqamli ta'lim muhitining mustaqil ta'limni individuallashtirish, avtonomiyani kuchaytirish va yangi pedagogik xavflarni (axborot ortiqchaligi, sun'iy intellektga bog'liqlik) keltirib chiqarishdagi o'rni tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini dialektik, tizimli, kompetensiyaga asoslangan, faoliyatga asoslangan, shaxsga yo'naltirilgan va muhitli yondashuvlar tashkil etadi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, ta'limni raqamlashtirish, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi, o'quvchi avtonomiyasi, metakognitsiya, raqamli kompetensiya.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim jarayonining barcha subyektlari — jumladan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari (bundan buyon — BIO') — o'rtasidagi mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni hamda “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi [1. 2020] zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilamoqda. Shu bois BIO' mustaqil ta'lim ko'nikmalarini raqamlashtirish sharoitida ilmiy asoslash dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotimizning ilmiy yangiligi shundan iboratki, mustaqil ta'lim umumiy pedagogik hodisa sifatida emas, balki aynan BIO'ning kasbiy shakllanishi kontekstida, uning o'ziga xos ikki tomonlama xarakterini hisobga olgan holda tahlil qilinadi. Birinchidan, BIO' chet tilini mustaqil ravishda egallashi — leksik, grammatik, fonetik va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishi lozim. Ikkinchidan, kelajakda o'qituvchi sifatida faoliyat yuritishi sababli, u tilni qanday o'rgatishni ham mustaqil o'rganishi zarur. Ushbu ikki jihatning uyg'unligi — tilni mustaqil egallash va uni o'qitish metodikasini mustaqil o'zlashtirish — BIO' mustaqil ta'limining o'ziga xosligini tashkil etadi. M. Noulzning mustaqil ta'limni shaxsning ehtiyojni aniqlash, maqsad belgilash va natijani baholashdan iborat jarayon sifatidagi ta'rifiga [2. 1975:B.18] tayanib, biz BIO' mustaqil ta'limni quyidagicha ta'riflashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: bu — talabani tashqi nazoratsiz, ichki motivatsiyasi asosida chet tilini va uni o'qitish metodikasini birgalikda, uzluksiz ravishda o'zlashtirish, takomillashtirish va amaliyotga tatbiq etish jarayoni.

BIO' mustaqil ta'limining tarkibiy tuzilishi to'rt komponentni o'z ichiga oladi: motivatsion komponent (mustaqil o'rganishga ichki ehtiyoj va kasbiy avtonomiyaga intilish), kognitiv komponent (til va metodik bilimlarni mustaqil egallash), texnologik-amaliy komponent (raqamli resurslar va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish ko'nikmalari) hamda reflektiv-baholovchi komponent (o'z faoliyatini mustaqil tahlil qilish va baholash qobiliyati). Bunda P.I. Pidkasistiyning mustaqil ish — ta'limni tashkil etish shakli emas, balki talabalarni mustaqil faoliyatga jalb qilish vositasi ekanligi haqidagi qarashlariga [3. 1980:B.26] tayanamiz. Ushbu komponentlar asosida talabalarning mustaqil ta'lim ko'nikmalari rivojlanish darajasiga ko'ra uch bosqichga bo'linadi: past (reproduktiv/qaram), o'rta (variativ-izlanuvchan/qisman avtonom) va yuqori (ijodiy-kasbiy/professional avtonom) darajalar.

Raqamli ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ta'lim mohiyati “o'qituvchisiz o'qish”dan ancha kengroq tushunchaga aylanadi: u maqsad belgilash, raqamli resurslarni tanlash, o'quv faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish, o'z-o'zini baholash va natijalarni tahlil qilishni qamrab oluvchi yaxlit pedagogik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. H. Xolek va P. Bensonning o'quvchi avtonomiyasi kontseptsiyasiga [4. 1981:B.3; 5. 2001:B.47] ko'ra, talaba o'z ta'lim jarayoni uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oluvchi subyektga aylanadi. Tadqiqotda BIO' mustaqil ta'limining raqamlashtirish sharoitidagi asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilar ajratib ko'rsatildi: kasbiy-pedagogik yo'naltirilganlik (“o'rganish — qo'llash — tahlil qilish — kelajakdagi pedagogik faoliyatga transfer qilish” zanjiri orqali namoyon bo'lishi); individual

ta'lim trayektoriyasini shakllantirish imkoniyati (diagnostika — rejalashtirish — individual rivojlanish bosqichlari asosida); ingliz tilini o'zlashtirishning kommunikativ-raqamli xarakteri; B. Zimmermanning self directed-learning nazariyasi [6. 1990:] va J. Flavellning metakognitsiya kontseptsiyasiga [7. 1979:B.906] tayanuvchi o'z-o'zini boshqarish va metakognitiv refleksivlik; hamda mustaqil faoliyatning raqamli hamkorlik va qayta aloqa bilan uyg'unligi.

Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayoni bir qator pedagogik muammolarni ham keltirib chiqaradi: axborotning haddan tashqari ko'pligi va uni tanqidiy baholash zarurati, raqamli chalg'ituvchilar sababli o'z-o'zini boshqarishning yetarli emasligi, generativ sun'iy intellekt vositalaridan tayyor natija olish maqsadida foydalanishning salbiy oqibatlari, shuningdek mustaqil ta'limni pedagogik boshqarish zarurati. Shu sababli tadqiqotda “to'liq erkinlik” emas, balki “yo'naltirilgan mustaqillik” tamoyili asos qilib olindi, unga ko'ra o'qituvchi tashkilotchi, maslahatchi va fasilitator sifatidagi rolini kuchaytiradi.

Tadqiqotning metodologik asosini dialektik, tizimli, kompetensiyaga asoslangan, faoliyatga asoslangan, shaxsga yo'naltirilgan va muhitli yondashuvlar tashkil etadi. Ularni amalga oshirishda pedagogik nazariya va amaliyotning o'zaro ta'siri, baholashning obyektivligi, madaniy muvofiqlik, raqamli texnologiyalarni pedagogik jihatdan integratsiyalash, pedagogik etika, ta'limning mustaqilligi va pedagogik usullarning to'g'riligi tamoyillariga tayanildi; analiz-sintez, induksiya-deduksiya, modellash va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'limni raqamlashtirish sharoitida BIO' mustaqil ta'limi shaxsning kasbiy va til kompetensiyalarini integratsiyalashuvchi murakkab pedagogik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Uning samaradorligi talabning mustaqilligi, raqamli resurslarning pedagogik imkoniyati va o'qituvchining metodik yo'naltirishi omillarining uyg'unligiga bog'liq. BIO'larning mustaqil ta'lim ko'nikmalarini tizimli rivojlantirish ularga o'zlari uchun qulay vaqtda ta'limni mustaqil tashkil etish imkonini beradi hamda Davlat ta'lim standartlari talablariga mos keladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning muhim shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2020.
2. Knowles M.S. Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers. – Chicago: Follett Publishing Company, 1975. – 135 p. – B.18.
3. Пидкасистый П.И. Самостоятельная познавательная деятельность школьников в обучении: теоретико-экспериментальное исследование. – М.: Педагогика, 1980. – 240 с. – В.26.
4. Holec H. Autonomy and Foreign Language Learning. – Oxford: Pergamon Press / Council of Europe, 1981. – B.3.
5. Benson P. Teaching and Researching Autonomy in Language Learning. – Harlow: Longman/Pearson Education, 2001. – 260 p. – B.47.
6. Zimmerman B.J. Self-Regulated Learning and Academic Achievement: An Overview // Educational Psychologist. – 1990. – Vol. 25, No. 1. – P. 3-17.
7. Flavell J.H. Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive-Developmental Inquiry // American Psychologist. – 1979. – Vol. 34, No. 10. – P. 906-911. – B.906.